

CULTURAL EXCHANGES, PROPERTY, AND COOPERATION

Import Restrictions

**Agreement Between the
UNITED STATES OF AMERICA
and UZBEKISTAN**

Signed at Tashkent November 7, 2023

Entered into force November 7, 2023



NOTE BY THE DEPARTMENT OF STATE

Pursuant to Public Law 89—497, approved July 8, 1966
(80 Stat. 271; 1 U.S.C. 113)—

“ . . .the Treaties and Other International Acts Series issued under the authority of the Secretary of State shall be competent evidence . . . of the treaties, international agreements other than treaties, and proclamations by the President of such treaties and international agreements other than treaties, as the case may be, therein contained, in all the courts of law and equity and of maritime jurisdiction, and in all the tribunals and public offices of the United States, and of the several States, without any further proof or authentication thereof.”

**AGREEMENT
BETWEEN
THE GOVERNMENT OF THE UNITED STATES OF AMERICA
AND
THE GOVERNMENT OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
CONCERNING THE IMPOSITION OF IMPORT RESTRICTIONS
ON CATEGORIES OF ARCHAEOLOGICAL AND ETHNOLOGICAL
MATERIALS OF UZBEKISTAN**

The Government of the United States of America and the Government of the Republic of Uzbekistan, hereinafter referred to as the “Parties”;

Acting pursuant to the 1970 UNESCO Convention on the Means of Prohibiting and Preventing the Illicit Import, Export and Transfer of Ownership of Cultural Property, to which both countries are States party; and

Desiring to reduce the incentive for pillage of irreplaceable archaeological and ethnological material representing Uzbekistan’s cultural heritage;

Have agreed as follows:

ARTICLE I

1. The Government of the United States of America shall, in accordance with its legislation, including the Convention on Cultural Property Implementation Act, restrict the importation into the United States of certain archaeological material ranging in date from 50,000 BCE to 1773 CE and certain ethnological material important to the cultural heritage of the people of Uzbekistan 600 to 1917 CE, identified in the list to be promulgated by the government of the United States of America (hereinafter referred to as the Designated List), unless the Government of the Republic of Uzbekistan issues a certificate which informs that such exportation was not in violation of its laws.

2. The Government of the United States of America shall offer for return to the Government of the Republic of Uzbekistan any object or material on the Designated List forfeited to the Government of the United States of America.

3. Such import restrictions shall become effective on the date the Designated List is published in the U.S. Federal Register, the official United States Government publication providing fair public notice.

ARTICLE II

1. Both Parties shall publicize this Agreement and the reasons for it.

2. The Government of the Republic of Uzbekistan shall continue to use its best efforts to maintain and share with the Government of the United States of America information about unauthorized excavations, thefts of cultural property, trafficking of cultural property, and other threats that jeopardize its cultural patrimony. To assist in these efforts, the Government of the United States of America shall use its best efforts to facilitate technical assistance to the Government of the Republic of Uzbekistan as appropriate under available programs in the public and/or private sectors.

3. The Government of the Republic of Uzbekistan shall continue to use its best efforts to take steps consistent with the 1970 UNESCO Convention on the Means of Prohibiting and Preventing the Illicit Import, Export and Transfer of Ownership of Cultural Property to protect its cultural patrimony. To assist in these efforts, the Government of the United States of America shall use its best efforts to facilitate technical assistance to the Government of the Republic of Uzbekistan as appropriate under available programs in the public and/or private sectors.

4. The Government of the Republic of Uzbekistan shall continue to use its best efforts to engage other countries having a significant import trade in archaeological and ethnological material from Uzbekistan to deter a serious situation of pillage of cultural property.

5. Each Party shall use best efforts to encourage interchange of archaeological and ethnological material for cultural, educational, and scientific purposes, including long-term loans of such material to promote widespread public appreciation of and access to Uzbekistan's rich cultural heritage.

6. Each Party shall continue to endeavor to keep the other informed of the measures taken to implement this Agreement.

ARTICLE III

The obligations of both Parties and the activities carried out under this Agreement shall be subject to their respective laws and regulations, including those with respect to the availability of appropriated funds.

ARTICLE IV

1. This Agreement shall enter into force upon signature; it shall remain in force for a period of five (5) years, unless extended.

2. This Agreement may be extended and/or amended only by mutual written consent of the Parties.


3. The Parties shall review the effectiveness of this Agreement before the expiration of the five (5)-year period in order to determine whether this Agreement should be extended.

4. Either Party may notify the other, in writing through diplomatic channels, of its intention to terminate this Agreement prior to its date of expiry. In such a case the termination shall come into effect six (6) months after the date of notification.

IN WITNESS WHEREOF, the undersigned, being duly authorized by their respective Governments, have signed the present Agreement.

DONE at Tashkent City, Uzbekistan this 7th day of November 2023, in duplicate, in the English and Uzbek languages, both texts being equally authentic.

**FOR THE GOVERNMENT OF
THE UNITED STATES OF
AMERICA**



**FOR THE REPUBLIC OF
UZBEKISTAN**



**Amerika Qo‘shma Shtatlari Hukumati
bilan O‘zbekiston Respublikasi Hukumati
o‘rtasida O‘zbekistonning arxeologik va etnologik
materiallari toifalariga import
cheklovlarini joriy etish to‘g‘risida
BITIM**

Amerika Qo‘shma Shtatlari Hukumati va O‘zbekiston Respublikasi Hukumati, keying o‘rinlarda “Tomonlar” deb ataluvchilar;

har ikki mamlakat ishtirokchi Davlatlar hisoblangan Madaniy boyliklarni noqonuniy ravishda olib kelish, olib ketish va ularga bo‘lgan egalik huquqini o‘zgaga berishni man etish va oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida 1970-yildagi YUNESKO Konvensiyasiga muvofiq harakat qilgan holda; va

O‘zbekiston madaniy merosini ifodalovchi, o‘rnini to‘ldirib bo‘lmaydigan arxeologik va etnologik materiallarni talon-taroj qilish rag‘batini kamaytirish istagida;

quyidagilar to‘g‘risida kelishib oldilar:

1-modda

1. Amerika Qo‘shma Shtatlari Hukumati o‘z qonunchiligiga, shu jumladan Madaniy boyliklar to‘g‘risidagi konvensiyani amalga oshirish to‘g‘risidagi aktiga muvofiq, Amerika Qo‘shma Shtatlari Hukumati tomonidan e‘lon qilinadigan ro‘yxatda (keyingi o‘rinlarda Belgilangan ro‘yxat deb ataluvchi) belgilangan miloddan avvalgi 50 000-yildan 1773-yilgacha bo‘lgan ma‘lum arxeologik materiallar va O‘zbekiston xalqining madaniy merosi uchun muhim miloddan 600-yildan 1917-yilgacha bo‘lgan ma‘lum etnologik materiallarning Qo‘shma Shtatlarga olib kirilishini cheklaydi, bunda O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bunday olib chiqilish uning qonunlariga zid emasligini tasdiqlovchi sertifikat bergan holatlar mustasno hisoblanadi.

2. Amerika Qo‘shma Shtatlari Hukumati Belgilangan ro‘yxatdagi Amerika Qo‘shma Shtatlari Hukumati hisobiga musodara qilingan har qanday obyekt yoki materialni O‘zbekiston Respublikasi Hukumatiga qaytarishni taklif qiladi.

3. Bunday import cheklovlari Belgilangan ro‘yxat Reestr Amerika Qo‘shma Shtatlari Hukumatining jamoatchilikni xabardor qilishni ko‘zlovchi rasmiy nashri hisoblangan AQSh Federal reestrda e‘lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

2-modda

1. Har ikki Tomon ushbu Bitimni va uning sabablarini e'lon qiladilar.

2. O'zbekiston Respublikasi Hukumati ruxsat etilmagan qazishmalar, madaniy boyliklarning o'g'irlanishi, madaniy boyliklar kontrabandasi va madaniy merosga xavf soladigan boshqa tahdidlar haqidagi ma'lumotlarni saqlash va Amerika Qo'shma Shtatlari Hukumati bilan bo'lishish uchun barcha imkoniyatlarni ishga solishda davom etadi. Mazkur sa'y-harakatlarga yordamlashish maqsadida Amerika Qo'shma Shtatlari Hukumati O'zbekiston Respublikasi Hukumatiga tegishlicha davlat va/yoki xususiy sektorlarda mavjud dasturlar doirasida texnik yordam ko'rsatishga ko'maklashish uchun barcha imkoniyatlarni ishga soladi.

3. Madaniy boyliklarni noqonuniy ravishda olib kelish, olib ketish va ularga bo'lgan egalik huquqini o'zgaga berishni man etish va oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida 1970-yildagi YUNESKO Konvensiyasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Hukumati o'zining madaniy merosini himoya qilish uchun barcha imkoniyatlarni ishga solishda davom etadi. Mazkur sa'y-harakatlarga yordamlashish maqsadida Amerika Qo'shma Shtatlari Hukumati O'zbekiston Respublikasi Hukumatiga tegishlicha davlat va/yoki xususiy sektorlarda mavjud dasturlar doirasida texnik yordam ko'rsatishga ko'maklashish uchun barcha imkoniyatlarni ishga soladi.

4. O'zbekiston Respublikasi Hukumati madaniy boyliklarning talon-taroj qilinishi bilan bog'liq jiddiy vaziyatlarni bartaraf etish borasida O'zbekistondan arxeologik va etnologik materiallarni sezilarli darajada import qiluvchi boshqa mamlakatlar bilan ishlash uchun barcha imkoniyatlarni ishga solishda davom etadi.

5. Har bir Tomon arxeologik va etnologik materiallarni madaniy, ta'lim va ilmiy maqsadlarda almashishni rag'batlantirish, shu jumladan, bunday materiallarni uzoq muddatga berib turish orqali O'zbekistonning boy madaniy merosi jamoatchilik tomonidan qadrlanishini keng ko'lamda e'tirof etish va ulardan foydalanish imkoniyatini oshirish maqsadida barcha imkoniyatlarni ishga soladi.

6. Har bir Tomon ushbu Bitimni amalga oshirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida boshqa Tomonni xabardor qilib turish harakatini davom ettiradi.

3-modda

Har ikki Tomonning majburiyatlari va ushbu Bitim doirasida amalga oshiriladigan faoliyatlari ularning tegishli qonunlar va qoidalariga, shu jumladan, ajratilgan mablag‘larning mavjudligiga bog‘liq bo‘ladi.


4-modda

1. Mazkur Bitim imzolangandan boshlab kuchga kiradi; basharti u uzaytirilmasa, besh (5) yil davomida amal qiladi.
2. Mazkur Bitim faqat Tomonlarning o‘zaro yozma roziliklari bilan uzaytirilishi va/yoki o‘zgartirilishi mumkin.
3. Tomonlar mazkur Bitimning amal qilish muddatini uzaytirish zaruriyati mavjudligi yoki mavjud emasligini aniqlash uchun besh (5) yillik muddat tugagunga qadar ushbu Bitimning samaradorligini ko‘rib chiqadilar.
4. Har bir Tomon boshqa Tomonni diplomatik kanallar orqali ushbu Bitimning amal qilish muddati tugagunga qadar uni tugatish niyati haqida yozma ravishda xabardor qilishi mumkin. Bunday holda, tugatish xabarnoma olingan kundan boshlab olti (6) oy o‘tgach kuchga kiradi.

Tegishli tartibda o‘z hukumatlari tomonidan vakolatlangan quyida imzo chekuvchilar shunga guvohlik berib, mazkur Bitimni imzoladilar.

Toshkent shahrida 2023-yil 7 noyabr kuni ikki asl nusxada, har biri ingliz va o‘zbek tillarida tuzildi, bunda barcha matnlar teng autentikdir.

**Amerika Qo‘shma Shtatlari
hukumati nomidan**



**O‘zbekiston Respublikasi
Hukumati nomidan**

